

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**«RO'YXATGA OLINDI»**

№ vm - 343 - 3400 - 3.20

«09» \_\_\_08\_\_\_ 2003 y.

**«TASDIQLANDI»**

**O'zbekiston Respublikasi**

**Oliy va o'rta maxsus**

**ta'lim vazirligi**

**S.Tulyaiov**

**«1» iyul 2003 y.**

**“MILLIY HISOBLAR TIZIMI”**

**fanidan**

**DASTUR**

**340000 - “Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasidagi barcha bakalavriat yo'nalishlari  
uchun**

**Toshkent – 2003**

**Tuzuvchi:** prof. M. Hamraev.

**Taqrizchilar:** O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, i.f.d., prof. q.A.Abdullaev  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan iqtisodchi, i.f.n., dots. A.Nabixo'jaev

Davlat ta'lim standartiga mos holda bakalavriat talabalariga "Milliy hisoblar tizimi" fanini o'qitish uchun tuzilgan. Dasturda kursning strukturasi, o'qitilish maqsadi va vazifalari, talabalarning bilimiga, o'quviga va ko'nikmasiga qo'yilgan talablar belgilangan. Boblar bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulolar mavzulari mazmuni va adabiyotlar ro'yxatlari keltirilgan. Dastur BMT ning MHT - 93 dagi muhim masalalarni o'z ichiga oladi.

Данная программа составлена в соответствии Государственным образовательным стандартом для обучения дисциплины бакалавриата "Система национальных счетов". В ней указаны цели и задачи дисциплины, требования к знаниям студентов, а также приведены содержания тем лекционного материала, практических занятий и самостоятельного изучения. Программа охватывает все важнейшие вопросы СНС ООН 1993 г.

The given program is made in according to the State educational standard for training of discipline bachelors " System of the national accounts". The purposes and tasks of discipline, requirement to knowledge of the students are specified in it, and also the names of the chapters and theme of a lecture material, practical employment and independent of study are given. The program covers all major questions of SNA UN of 1993.

Dastur Toshkent moliya instituti ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan (2002 yil 25 aprel 9 - sonli bayonnoma).

## **1. SO'Z BOSHI**

### **O'qitishning maqsadi va vazifasi.**

Hozirgi paytda jahonning 150 dan ko'proq mamlakatida milliy hisoblar tizimi (MHT) qo'llanilmoqda. MHT - iqtisodiy jarayonlarni makrodarajada bayon va analiz qilishning iqtisodiy informatsiya tizimidir. MHTni bilmaslik bozor iqtisodiyotida o'zaro aloqalarni o'rganish, samarali ijtimoiy siyosatni o'tkazishga va iqtisodiy boshqarishga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun Milliy hisoblar tizimi bo'yicha bilimlik darajasi, hozirgi zamon iqtisodchi va moliyachilarni tayyorlanishi darajasiga baho berishda mezon sifatida xizmat qiladi.

Bu fanni o'qitishdan maqsad MHT ning asosiy kontsepsiyalari, tushunchalari va ko'rsatkichlari bilan tanishtirish, talabalarda makrodarajadagi real iqtisodiy informatsiyalarni analiz qilish ko'nikmalarini paydo qilishdir.

### **Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, uquviga va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar**

Talabalarga bu fan o'qitgandan so'ng Oliy kasbiy ta'limning Davlat standartidagi 5340000 sohaning qayd qilingan yo'nalishlari bo'yicha bakalavr tayyorlash saviyasi va mazmuniga «Milliy hisoblar tizimi» fani bo'yicha minimum talablarga javob bermog'i darkor.

### **O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi**

MHTni ushbu dasturda o'qitishdan oldin talabalar iqtisodiy nazariyasi, makroiqtisodiyot, statistika, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy - matematik fanlarini o'zlashtirgan bo'lishlari zarur hamda talabalar ShEHM da statistikaga oid standart dasturlardan va "Internet" tizimidan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lmoqlari darkordir.

### **Fanning o'qitishdagi yangi texnologiyalar**

O'quv mashg'ulotlari kompyuter sinflarda o'tkaziladi, statistikaga oid standart dasturlardan foydalaniladi. Xalqaro Moliya institutlari (IMF, Unstat, Wbank va hokazo) ning milliy hisobchilik bo'yicha ko'rsatmalari, yo'riqnomalari, yilnomalari, asosida mashg'ulotlar o'tkaziladi. MDH statkomiteti va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida ilmiy - uslubiy sharhlar va referatlar tayyorlanadi. Test tizimidan foydalaniladi.

### **Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajmi**

Namunaviy o'quv rejasida bu fanni o'qitish uchun 54 soat, shundan ma'ruza 18, amaliy mashg'ulot 18, mustaqil ta'lim uchun 18 soat belgilangan.

## **2. FANNING DASTURI**

### **Kirish**

Milliy hisoblar tizimi (MHT) haqida tushuncha. MHT ning maqsadlari. MHT ma'lumotlarining iste'molchilari. MHT bilan buxgalteriya hisobi va xalq xo'jaligi balansi o'rtasidagi munosabatlar. MHT ning paydo bo'lishi va taraqqiyot bosqichlari. MHT ning nazariy asoslari, kontsepsiyalari va tushunchalari. Iqtisodiy ishlab chiqarish faktorlari kontsepsiyasi. Pirovard va oraliq mahsulot, birlamchi daromad va transfert, oqim va zaxira hamda tovar va xizmatlar oqimi bilan pul oqimi o'rtalaridagi farqlar. BMT va Evrostatning MHTlarining umumiy strukturasi,

o'xshashliklari va farqlari. O'zbekiston Respublikasida milliy schyotlar tizimini joriy etish va asosiy statistikani jahon standartlari asosida reformatsiya qilish borasida Davlat dasturi va uni realizatsiya qilinishi.

Milliy hisoblar tizimida iqtisodiy agentlar va ularning klassifikatsiyasi (tasnifi). MHTning asosiy ko'rsatkichlari

Iqtisodiy faoliyat va uning chegarasi. Iqtisodiy birliklar va iqtisodiy hudud. Milliy va ichki iqtisodiyotning sektorlar va tarmoqlarga bo'linishi. Iqtisodiyotni sektorial va tarmoqiy analiz qilishning ahamiyati. Sektorlar va tarmoqlarni tashkil qilish kriteriya (mezon) lari. Nomoliyaviy korporatsiyalar sektori. Moliyaviy korporatsiyalar sektori. Davlat muassasalari sektori. Uy xo'jaligiga xizmat qiluvchi notijoriy tashkilotlar sektori. Uy xo'jaligi sektori. Qolgan dunyo (barcha norezidentlik birliklar).

MHT da iqtisodiy harakatlar (operatsiyalar). Iqtisodiy harakatlarning klassifikatsiyasi (tasnifi). harakatlarni qayd (registratsiya) qilish qoidalari (printsiplari). Mahsulot bilan kilinadigan operatsiyalar. Moliyaviy instrumentlar (baho, soliq, subsidiyalar va boshqalar) bilan qilinadigan operatsiyalar. MHTning asosiy ko'rsatkichlari: yalpi ichki mahsulot (YaIM), yalpi milliy daromad (YaMD) va milliy ixtiyordagi yalpi daromad (MIYaD) va boshqa ko'rsatkichlar. Asosiy operatsiyalar va MHT ning asosiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqliklar.

### ***MHT schyotlarining klassifikatsiyasi (tasnifi)***

*MHT schyotlari, ularni tuzishning umumiy qoidalari. MHT ning 1,2,3 - tahririyatlarida schyotlarning chizgisi (sxemasi). Institutsional sektorlar, tarmoqlar va iqtisodiy operatsiyalarning ba'zi turlari uchun schyotlar. Yaxlit iqtisodiyot uchun schyotlar.*

Ishlab chiqarish schyoti va uning asosiy ko'rsatkichlari

Ishlab chiqarish haqida tushuncha, uning chegarasi. Xarid va noxarid ishlab chiqarish. Ishlab chiqarish, sotuv, barter, mehnatga *naturada* xaq to'lash, o'zaro etkazib berishlar, tayyor mahsulotlar zaxirasining o'zgarishi, tugallanmagan ishlab chiqarish va boshqalarni hisoblash. Yalpi ishlab chiqarish, oraliq iste'moli, asosiy kapital iste'moli va yalpi qo'shilgan va sof qo'shilgan qiymat hajmini hisoblash. Ishlab chiqarish va oraliq iste'molini baholash qoidalari. MHT da baholar tizimi. Iqtisodiyotning tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish soha tarmoqlarida va hamda sektor va kichik sektorlarida yalpi ishlab chiqarish, oraliq iste'moli, yalpi va sof qo'shilgan qiymat hajmlarini hisoblash xususiyatlari. Mahsulotga solingan soliqlar va berilgan subsidiyalar. *Xufiyona va yashirin iqtisodiyot ko'lamini hisoblash.* Yaxlit iqtisodiyot buyicha yalpi qo'shilgan qiymat, yalpi ichki mahsulot,

yalpi milliy daromad, sof milliy daromad hajmini hisoblash. *Regional YaIM, ekologik YaIM hajmini hisoblash muammosi.*

### **Daromadlarning hosil qilinishi va birlamchi taqsimot schyotlari, ularning asosiy ko'rsatkichlari**

Daromadlar to'g'risidagi umumiy (DJ XIKS, P. LIPPE) kontseptsiya va MHTda daromadlarning ko'rsatkichlari. O'zbekiston Respublikasi statistikasida daromad ko'rsatkichlari: birlamchi daromadlar, pul shaklidagi joriy transfertlar, ixtiyordagi daromadlar, *natura* shaklidagi joriy sotsial transfertlar, milliy daromad, milliy ixtiyordagi daromadni hisoblash. Qo'shilgan qiymatning tarkibiy qismlari: mehnat xaqi (naqd va natura shaklidagi ish xaqi, ijtimoiy sug'urta), ishlab chiqarish va importga solingan soliqlar (ularning klassifikatsiyasi), subsidiyalar (ularning klassifikatsiyasi), foyda va aralash daromad. Mulk daromadlari: foizlar, korporatsiyalarning taqsimlanadigan foydasi, dividendlar, renta va boshqalar. Yalpi ichki mahsulot hajmini daromadlarni qo'shish uslubida hisoblash. Daromadlarni ikkilamchi taqsimoti schyotidagi asosiy operatsiyalar (harakatlar). Ixtiyordagi daromad. Milliy ixtiyordagi daromad. Transfertlar: joriy va kapital transfertlar, pul va natura shaklidagi transfertlar. Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, ijtimoiy nafaqalar va yordamlar. Boshqa joriy transfertlar. Qayta taqsimlashning pul va natura shakllari.

### **Daromatlardan foydalanish schyoti va uning asosiy ko'rsatkichlari**

Yalpi ichki mahsulot hajmini pirovard foydalanish usulida hisoblashning zaruriyati va xususiyatlari:

$GDR (YaIM) = S + I + G + X_n$  holida hisoblash orqali iste'mol, jamg'arish va tashqi iqtisodiy aloqalar o'rtasidagi nisbatlarni o'rganish. Sarflar, xarid qilish, foydalanish. Pirovard iste'mol. Uy xo'jaligi, uy xo'jaligiga xizmat qiluvchi notijorat tashkilotlarning pirovard iste'moli. Tovar va xizmatlarning davlat xaridi va uning klassifikatsiyasi (individual, jamoa, umumdavlat boshqarish). Jamg'arish. Kapital sarflarni moliyalashtirishning asosiy manbalari. Jamg'arish, bank depozitlari va naqd pul hajmi dinamikasi. Tashqi iqtisodiy aloqalar va ularning saldosi, undan YaIM hajmini hisoblashda foydalanish.

### **Kapital bilan qilinadigan harakatlar (operatsiya) lar schyoti**

Iqtisodiy aktivlar haqida tushuncha. Nomoliyaviy aktivlar klassifikatsiyasi. Asosiy kapital, moddiy aylanma vositalarining zaxirasi, qimmatli buyumlar, ishlab chiqarilgan va ishlab chiqarilmagan moddiy va nomoddiy aktivlar. Nomoliyaviy aktivlar bilan qilinadigan harakatlar (kirimi, chiqimi, takomillashuvi, mulk shaklini o'zgarishi). Asosiy kapitalning yalpi va sof jamgarilishi. Yalpi jamg'arilishini

xisobga olish, baholash va qayta baholash. Asosiy kapitalning iste'moli. Kapital transfertlar (kapitalga soliq, investitsiyaga subsiditsiyalar, boshqalar). Sof o'zlashtirish, sof kreditlash ko'rsatkichlari.

### **Moliya schyoti**

*Aktiv va passivlar balansi.* Balansning aktivi va passividagi o'zgarishlar. Aktivlarning klassifikatsiyasi. O'ziga qarashli kapitalning sof qiymati va uning o'zgarishi omillari, hajmining real o'zgarishi. Milliy boylik - iqtisodiyotning barcha sektorlarining o'ziga tegishli sof kapitalining yig'indisi sifatida. MHT va tarmoqlararo balans, uni xalq xo'jaligi (moddiy) balansidan farqi va o'xshashligi. MHT dagi tarmoqlararo moliyaviy balansning statistik modeli. *Tarmoqlararo moliya balansining matematik talqini (interpretatsiyasi).*

### **MHT asosida yalpi ichki mahsulot hajmi dinamikasini o'rganish**

Yalpi ichki mahsulot va uning komponentlar (qismlar)ini o'zgarimas baholarda baholashning ahamiyati, printsiplari, usullari. YaIM ni qayta baholashda to'g'ri qayta baholash, ikkinchi deflyatorlashtirish, fizik hajm indeksi yordamida ekstrapolyatsiyalashtirish va boshqalar. Gershenkron effekti haqida tushuncha. Yalpi ichki mahsulot hajmi dinamikasiga ta'sir etuvchi faktorlar va ularning hissasini statistikada baholash.

### **BMTning MHTsi va boshqa hisobchilik tizimlarining hususiyatlari**

BMT, Evrostat, Germaniya, Yaponiya va boshqa milliy hisobchilik tizimlarining o'xshashliklari va farqlari. MDH respublikalarida MHT ning joriy etilishi va muammolari. MHT ning asosiy ko'rsatkichlarini xalqaro taqqoslashtirish. Ko'p tomonli taqqoslashtirish usullari:

Giri - Kamis usuli, EKSh usuli, Jirardi usuli va boshqalar. MHT ko'rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikning darajasi va dinamikasini o'rganish. MHT ma'lumotlaridan iqtisodiy siyosatni tashkil qilishda foydalanish.

### **3. AMALIY MASHG'ULOTLARNING NAMUNAVIY MAVZUSINING MAZMUNI.**

MHTda iqtisodiy agentlar va ularning klassifikatsiyasi, MHTning asosiy ko'rsatkichlari

MHT ning asosiy ko'rsatkichlari. Yalpi ichki mahsulot (YaIM). Yalpi milliy daromad (YaMD), sof milliy daromad (SMD), milliy ixtiyordagi daromad (MID) va boshqa ko'rsatkichlar.\*

### **Ishlab chiqarish schyoti va uning asosiy ko'rsatkichlari**

Ishlab chiqarish hajmini o'lchash.\* Xufyona iqtisodiyotda ishlab chikarilgan tovar va xizmatlar hajmini hisoblash. Yalpi va sof qo'shilgan qiymat.\* O'zbekiston Respublikasida YaIM, YaMD hajmini hisoblash uslubiyati. YaIM strukturasi iqtisodiy - statistik analizi.\*

### **Daromadlarning hosil qilinishi va birlamchi taqsimot schyotlari, ularning asosiy ko'rsatkichlari**

Birlamchi daromadlar.\* Hisobga olinmagan daromadlar. Ixtiyordagi daromadlar. O'zbekiston Respublikasida daromadlarning hosil qilinishi, taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi statistikasi.\*

### **Daromatlardan foydalanish schyoti va uning asosiy ko'rsatkichlari**

YaIM hajmini  $GDP=S+I+G+X_n$  shaklida hisoblash orqali iste'mol, jamg'arish va tashqi iqtisodiy aloqalar o'rtasidagi nisbatlarni o'rganish.\* Pirovard iste'mol.\* Jamg'arish, bank depozitlari va naqd pul hajmi dinamikasi.\*

### **Kapital bilan qilinadigan harakat schyoti**

Iqtisodiy aktivlar, ularning klassifikatsiyasi. Asosiy kapitalni yalpi va sof jamg'arilishi va boshqalar.\* Kapital transfertlar.\*

### **Moliya schyoti**

Moliya hujjatlarining tasnifi. Institutsional sektorlar moliya schyoti ko'rsatkichlarini hisoblash metodlari.\* Qolgan dunyo moliya schyotini tuzish uslubiyati (metodikasi), muammolari.\*

### **MHT asosida YaIM hajmi dinamikasini o'rganish**

YaIM va uning komponentlarini o'zgarmas (solishtirma) baholarda baholash usullari.\* Regional YaIM va Ekologik YaIM dinamikasini o'rganish xususiyatlari. Inflyatsiyaning MHT ko'rsatkichlariga ta'sirini statistik baholash.\*

### **BMT MHT si va boshqa milliy hisobchilik tizimlarining xususiyatlari**

YaIM va uning komponentlarini xalqaro taqqoslashlarda baholash metodlari. Ko'p tomonli taqqoslashlar. YaIM va uning komponentlarini analiz qilishning yunalishlari.

## **4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA - NAMOIYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHQA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI**

- Ko'rgazma - namoyish materiallari ro'yxati.

Barcha mavzular bo'yicha statistika jadvallari, chizmalar va grafiklardan foydalaniladi.

IMF, WBank, UNStat, Eurostat, MDH statkomiteti, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistikaga oid materiallari (yilnomalar, ko'rsanmalar, yo'riqnomalar, statistika shakllari) o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida ko'rsatiladi va foydalaniladi.

- Amaliyot darslarini o'tkazishda statistikaga oid standart dasturlardan foydalaniladi.

- "Internet" tizimi materiallaridan keng foydalanish ko'zda tutiladi.

## **5. O'ZLASH TIRISHNI BAHOLASH**

Mazkur fanning talabalar tomonidan o'zlashtirilishi baholashning quyidagi turlari yordamida baholanadi: joriy baholash (12,6 ballgacha), oraliq baholash (12,6 ballgacha) va yakuniy baholash (10,8 ballgacha), jami 36 ball. Bu ushbu fan uchun belgilangan maksimal balldir. Baholashda quyidagi shkaladan foydalaniladi.

Nazorat ishlarini o'tkazishda talabalarning o'quv mashg'ulotlariga qatnashuvi, faolligi, qo'shimcha ilmiy - uslubiy adabiyotlardan, "Internet" tizimi va statistikaga oid standart dasturlardan va real makro - mikro iqtisodiy statistika ma'lumotlaridan foydalanishi va boshqa faolligi e'tiborga olinadi.

Yakuniy baholash yozma ish yoki shaklida o'tkazilishi mumkin.

## **6. INFORMATSION USLUBIY TA'MINOT**

### **Asosiy adabiyot**

1. Karimov I.A., Ivanov Yu.N. i drugie . «Sistema natsionalnix schyotov - instrument makroekonomicheskogo analiza» , Uch.pos. - M.: Finstatinform, 1996g.
2. Lippe P. Ekonomicheskaya statistika. Perevod s nemetskogo, izdatelstvo FSU FRG, 1995g.
3. Natsionalnoe schyotovodstvo. Uchebnik /Pod.red. Kulaginoy E.D. - M.: F i S, 1997.
4. Natsionalnie schyota v perexodniy period. Izdanie OON, 1995g.
5. Salin V.I. i drugie Makroekonomicheskaya statistika. Uchebnoe posobie, 2 - e izdanie, ispr. - M: Delo, 2001.



6. Sistema natsionalnix schyotov . Izdanie OON, 1993 g.
7. Ekonomicheskaya statistika. Uchebnik pod.red.Yu. N. Ivanova – M.: Infra - M, 1998g.

#### **Qo'shimcha adabiyot**

1. Abryutina M., Grachev A. Ot buxgalterskogo uchyota k sisteme natsionalnix schyotov. Voprosi statistiki, 1997 g.
2. Gorbacheva T.L., Rijikova Z.A. Metodologicheskie podxodi izmereniya zanyatosti v neformalnom sektore ekonomiki //Voprosi ekonomiki, 4/2002.
3. Eroshkina S.B. Platejniy balans v sisteme makroekonomicheskix pokazateley // Voprosi statistiki, 4/2002.
4. Zamaraev B. Modifitsirovannaya sxema makro - ekonomicheskix pokazateley sistemi natsionalnix schyotov. Voprosi statistiki, 1997g.
5. Ivanov Yu.N., Xomenko T.A. Metodologiya ischisleniya nekotorig pokazateley finansovix operatsiy v SNS // Voprosi statistiki, 4/2001.
6. Ivanov Yu. K vixodu v svet. Noviy SNS OON // Voprosi ekonomiki, 5/1994.
7. Ivanov Yu. Perspektivi vnedreniya SNS v praktiku stran SNG // Voprosi ekonomiki, 5/1993.
8. Ivanov Yu. K voprosu o metodologii ischisleniya produktsii finansovix uchrejdeniy v SNS // Voprosi statistiki. 10/1996.
9. Kevesh A.L. i drugie O kompleksnoy programme razvitiya sistemi standartnix ekonomiko–statisticheskix klassifikatsiy i registrov i ix vnedreniya v statisticheskuyu informatsionnuyu sistemu v 2001 - 2005 godax //Vestnik statistiki. 8/2001.
10. Kremlev N.D. Nekotorie problemi osvoeniya sistemi natsionalnix schetov v regione // Voprosi statistiki, 9/1999.
11. Levit S. Ponomarenko A. Razvitie sektoralnix raschyotov SNS v Rosii. Voprosi statistiki, 1997g.
12. Metodologicheskoe polozhenie po statistike: Vip 1,2 Goskomstat RF - M. 1997 g. 1998 g.
13. Mejdunarodnaya standartnaya otraslevaya klassifikatsiya vsekh vidov ekonomicheskoy deyatel'nosti (3 - d red) - OON. 1990.
14. Nesterov S. Chobanu K. Metodologicheskie otrajeniya vneshneekonomicheskix svyazey v sisteme natsionalnix schyotov Rossii. Voprosi statistiki, 1997g.
15. Rekomendatsii po sostavleniyu finansovogo schyota. Izdanie statkomiteta. SNG, 1996g.

16. Rekomendatsii Mejsudarstvennogo statisticheskogo komiteta SNG po sostavleniya klyuchevax schetov SNS, 1995.
17. Rekomendatsii po raschetu vipuska, promejutochnogo potrebleniya i dobavlennoy stoimosti po otraslyam i sektoram ekonomiki. - M.: Statkomitet SNG, 1999.
18. Simchera V.M. i drugie, Entsiklopediya statisticheskix publikatsiy: X - XX vv. - M.: Fis, 2001.
19. Skvoznikov V.Ya. , Azarenkova V.V. Problemi otsenki Tenevoy ekonomiki // Voprosi statistiki. 12/2001.
20. Chobanu K. Otsenka vozdeystviya inflyatsii na pokazateli sistemi natsionalnix schyotov. Voprosi statistiki, 1997 g.
21. Chobanu K. Problemi metodologii makroekonomicheskogo analiza na osnove informatsii SNS //Voprosi statistiki, 10/1996.
22. Churilova E. Osnovi metodologii provedeniya doschetov makroekonomicheskix pokazateley. Voprosi statistiki, №8, 1998 g.